

strategik ish olib borilsa, o‘zbek tilining jahon miqyosida nufuzli tilga aylanishiga erishish mumkin. Bu nafaqat milliy g‘ururni mustahkamlash, balki O‘zbekistonning xalqaro miqyosdagi obro‘sini ham oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Darakchi.uz sayti
- 2.<https://t.me/eduuz/19152>

BOLALAR TARBIYASIDA MAK TABGACHA TA’LIM TASHKIL OTI VA OILA HAMKORLIGI

Zokirova Laylo Shamsiddinovna

Davlat Maktabacha Ta’lim Tashkiloti

Direktor o’rinbosari.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bola tarbiyasida maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligining ahamyati yoritilgan. Bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun oilaviy tarbiya va ta’lim tashkiloti o’zaro uyg’unlikda ishlashlari ta’kidlanadi. Hamda ota onalat va tarbiyachilar o’rtasidagi hamkorlik ishkari ko’rib chiqiladi. Maqolada olimlarning fikirlari keltiriladi.

Kalit so’zlar: maktabgacha ta’lim, oila bilan hamkorlik, bolalar shaxsi,bola tarbiyasi, metod

Bolalar tarbiyasi murakkab va uzlusiz jarayon bo’lib , unda ota ona , oila, pedagoglar va jamiyat muhum ro’l o’ynaydi. Ayniqsa maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila o’rtasidagi hamkorlik bolaning har tomonlama rivojlanishi zarurdir. Ushbu hamkorlik bola shaxsining shakillanishi, uning intellektual, ahoqiy, jismoniy va estetik tarbiyasiga ta’sir qiladi. Har bir bolaning dunyo qarashi, fel atvori har xil bo’ladi. Bolaning nimani yaxshi ko’rshiyu, nimani yomon kurishini tarbiyachiga nisbatan ota onasi oila a’zolari yaxshi bilishadi shunday ekan bola tarbiyasida oila bilan hamkorlikda ishlansa maqsadga muvofiq bo’ladi. Farzand ta’lim tarbiyasi va rivojlanish tamoyili asosida amalga oshiriladigan bu hamkorlik bolalarni qiziqishini, o’z faoliyat jarayonini tahlil qilishni hamda ota ona tomonidan farzandini muntazam nazoratini mustahkamlaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda ma’naviy ahloqiy, aqliy estetik, jismonan va mehnat tarbiyalarini birgalikda olib borish yaxshi

samarasi beradi. Ma'naviy tarbiyani bolaga o'tishda Vatan ravnaqi, el-yurt tinchligi va farovonligi yo'lida kurashgan xalq qahramonlari haqida gapirib berish , mustaqillik, qadiryat va an'analarimizni o'rgatish orqali singdirish mumkun. Oilaviy tarbiya jarayonida shaxsni bir qator jihatlari shakillanadigan boshqa hech qaysi tarbiya obekti oiladagidek yuqori nateja bermaydi. Ota onalar va pedagoglarning yagona yondoshuvi bolaning tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida o'rganilgan bilim va ko'nikmalar oilada mustahkamlanishi kerak. Oila bolaning ilk tarbiyachisi bo'lsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti uni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi. Ikkala tomonning hamkorligi bolaning moslashuvchan va o'ziga ishonchli bo'lib ulg'ayishiga yordam beradi. Har bir bola o'ziga xos qobilyat va iste'dodga ega. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota onalar birgalikda uning qiziqishlarini aniqlab, rivojlantirishlari mumkun. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota onalar bilan jamoa tarzida va yakka tartibda ishslash ishlarini olib borish hamkorlikda targ'ibot tashfiqot ishlarini tashkil etish tufayli bolalarni tarbiyalashda ijobiy natejalarga erishish mumkun.

Hamkorlikda ishslashda ota onalar bilan muntazam uchrashuvlar ,maslahat soatlari va seminar treninglar o'tkazish orqali ularning pedagogik savodxonligini oshirish mumkun. Bayramlar, siport musobaqalari va mahorat darslari kabi tadbirlar oilaviy muhutni mustahkamlashga yordam beradi. Ota onalar maktabgacha talim tashkiloti faoliyati bilan yaqindan tanishib, pedagogik jarayonni kuzatishlari va tavsiyalar berishlari mumkun. Zamonaviy texnologiyalar yordamida ota onalar va tarbiyachilar doimo aloqa qilib, muhim ma'lumotlarni almashib turushlari lozim. Bundan tashqari oila bilan hamkorlik ishlarida tarbiyachi va ota ona o'rtaida aloqa daftarning yo'lga qo'yilishi ota onalar bolani muntazam nazorat qilishlarini taminlaydi. Bunda tarbiyachi bolaga uyga vazifa tariqasida daftarga vazifa yozib (yod olish uchun she'r, bo'yash uchun raskiraska va h.k) yuboradi bolalar esa uni uylarida ota onalari nazorati ostida va birgalikda bajarishadi, bunda ota onalar farzandini muntazam nazorat qilib borishadilar hamda bolalarga maktabga chiqish oldidan o'z daftarlarini ehtiyoitlab uyga olib borib olib kelish kunikmasi shakillanib boradi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligida ishslashda yana bir metodlardan biri bu mashg'ulot jarayoniga ota onalarni taklif qilish hisoblanadi, bunda ota onalar o'z farzandlari bilan birgalikda mashg'ulot jarayonida jamoa bo'lib ishslashadi, musiqa mashg'ulotida birga raqsga tushushadi, jismoniy tarbiya darsida esa birgalikda jamoalarga bo'linib shug'ullanishadi agarda musobaqalar tashkil etilsa bolalar ota onalari bilan birgalikda qatnashib g'olib bo'lishsa juda xursand bo'lishadi, shu tariqa mashg'ulot jarayonlarida ham birgalikda ishslash bola rivojlanishi uchun juda samarali hisoblanadi. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ota onalar yig'ilishlari tashkil etilganda "onalar yig'ilishi" yoki "otalar yig'ilishi" kabi maxsus yig'ilishlar o'tkazish ham ota onalarni har birini jalb qilib birgalikda ishslashga yordam beradi. Bola tabiyasida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi tug'risida

buyuk olimlarimoz ham o'z fikrini bildirib o'tishgan masalan; Komenskiy bolalarni yoshiga mos tarbiyalash va ta'lim berish g'oyasini ilgari surgan. Uning fikricha: oila bolaga dastlabki tarbiyani beradi maktabgacha ta'lim tashkiloti esa bu jarayonni ilmiy asosda davom ettiradi. Tarbiyachilar va ota onalar hamkorligi bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi. Shu jumladan Abdulqodir Muhammadiyonov (zamonaviy pedagog-olim) bola tarbiyasida individual yondoshuv muhim bo'lib , bunda ota onalar va tarbiyachilarning yaqin hamkorligi zarur, maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning uyg'un ishlashi bolaning kelajakdagi muvaffaqiyatli shaxs sifatida shakillanishiga ta'sir qiladi deb fikir bildiradi.

Bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorlik ishlarida "Pochta qutisi" metodidan foydalanish hamkorlik ishlarini yanada mustahkamlaydi. Bu metod orqali ota onalar va tarbiyachilar o'zaro fikir almashishlari, o'z takliflarini bildirishlari mumkin. Bu metoddha maktabgacha ta'lim tashkilotiga "Pochta qutisi" o'rnatiladi. Ota onalar bu qutuga o'z takliflarini, fikirlarini yozib tashlashlari mumkun, tarbiyachilar esa bu fikirlarni o'rganib, ularga javob berishadi yoki takliflar bo'lsa chora tadbirlarni ishlab chiqishadi. Bu metod orqali uyg'a topshiriqlar va tavsiyalar junatish mumkun, masalan: tarbiyachilar ota onalar bilan hamkorlikda bolalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar yoki topshiriqlar pochta qutusi orqali jo'natilishi mumkun. Bundan tashqari maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan ota onalarga bolalar tarbiyasi sog'lig'i yoki rivojlanishi bo'yicha so'rovnomalar tarqatish va javoblarni pochta qutisi orqali yig'ish mumkun, masalan: "Farzandingiz uyda qaysi mashg'ulotni ko'proq yaxshi ko'radi?" kabi savollar ota onaning ishtirokini oshiradi. "Pochta qutisi" metodi hamkorlik ishlarda samarali a'loqa o'rnatish uchun juda foydali.

Xulosa qilib aytganda bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik uning to'laqonli shaxs bo'lib yitishishida katta akamyatga ega. Tarbiyachilar va ota onalar bir-birini tushunib, hamkorlikda ishlaganda, bola uchun eng yaxshi sharoitlar yaratiladi. Shuning uchun ham bu jarayonda faollik va mas'ulyatni oshirish juda muhim. Ko'plab pedagog va pisixoliklar bola tarbiyasida oilaning dastlabki o'rni va maktabgacha ta'limning davomli tasiri muhim deb bilishadi. Ularning fikricha bola tarbiyasi va ta'lim jarayoni oilada boshlanib, maktabgacha ta'lim tashkilotida ilmiy asosda rivojlantirilishi kerak. Shu bois ota onalar va tarbiyachilar birgalikda ishlashlari, bolalarning qiziqish va ehtiyojlarini hisobga olib , tarbiyaviy ishlarni tashkil etishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. www.Maktabgacha ta'lim.uz
2. Fayziyeva.Z "MTM va oila hamkorligi" Maktabgacha ta'lim jo'rnnali 2/2016